

ALEKSANDR FAYNBERG QALAMI OSTIDA BOLALIK XOTIRALAR TALQINI: “YAM-YASHIL MAKON” SHE'RINING G'OYAVIY TAHLILI

Maxmudova Sarvinoz Ilhomjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti Arab tili yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

Umurzakova Oygul Umarovna

*Ilmiy rahbar: O'ZDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va
amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'ring badiiy-estetik xususiyatlari, ramziy obrazlari va g'oyaviy yo'nalishi tahlil qilinadi. Asarda bolalik xotiralari, sog'inch, vaqt va abadiylik masalalari poetik vositalar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bolalik, sog'inch, xotira, ramz, poetik obraz, kontrast, personifikatsiya, abadiylik.

Annotation. This article analyzes the artistic and aesthetic features of the poem, focusing on its symbolic imagery and thematic direction. The poem explores childhood memories, nostalgia, and the contrast between time and eternity through poetic devices.

Keywords: childhood, nostalgia, memory, symbolism, poetic image, contrast, personification, eternity.

Аннотация. В статье анализируются художественно-эстетические особенности стихотворения, его символические образы и идейное содержание. Раскрываются темы детства, ностальгии, времени и вечности с использованием поэтических средств.

Ключевые слова: детство, ностальгия, память, символ, поэтический образ, контраст, олицетворение, вечность.

KIRISH. Darhaqiqat, hech bir shoir yo'qki, o'zining tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan, hayotining eng go'zal davri bo'lmish bolaligi o'tgan makonni ulug'lab qalam tebratmasa. Shu jumladan, Aleksandr Arkadayevich Faynberg ham barakali ijodi davomida o'zi uchun qadrdon diyorni bot-bot ta'kidlab, madh etib yozganiga guvoh bo'lamiz. Ana shunday go'zal misralardan iborat yana biri “Yam-yashil makon” nomli she'ridir.

Aziz shahrim, yam-yashil makon,

Ilk tabassum, birinchi ko'z yosh.

Qora o'ra, xaroba ayvon

Uzra yashil novda yashnar yosh.

Ushbu she'r lirik qahramonning tug'ilib o'sgan maskani – aziz shahri haqidagi sog'inch, xotira va ruhiy bog'liqlik tuyg'ularini ifodalaydi. Asarda bolalik manzaralari, oddiy ko'rindigan, ammo qalb uchun bebaho bo'lgan detallar orqali o'quvchi qalbiga chuqur ta'sir o'tkaziladi.

She'ning birinchi misralaridayoq shoir shahrini "yam-yashil makon" deb ataydi. Bu tasvir nafaqat tabiat go'zalligini, balki ruhiy poklik va beg'ubor bolalikni ham anglatadi. "Ilk tabassum, birinchi ko'z yosh" iboralari esa inson hayotining eng muhim bosqichi – bolalik davrini yodga soladi. Bu misralarda shoir shaxsiy hayotiy tajribasini umumiy insoniy kechinmaga aylantira olgan.

Tunuka tom ustida Gena,
Hushtak chalib kaptar o'ynardi.
Uchratarman qayerda yana
Ko'cha to'la og'aynilardi?

Keyingi bandlarda "Qora o'ra, xaroba ayvon" kabi tasvirlar uchraydi. Bu joylar oddiy, hatto ko'rimsiz bo'lishi mumkin, ammo lirik qahramon uchun ular muqaddas xotira maskanidir. "Uzra yashil novda yashnar yosh" misrasi xarobalik va hayotiylik o'rtasidagi kontrastni ochib beradi. Bu yerda yashil novda – umid va davomiylik ramzi sifatida talqin qilinadi.

"Tunuka tom ustida Gena" obrazi she'rga jonlilik va hayotiylik olib kiradi. Bu oddiy mahalla manzarasi bolalikning beg'ubor o'yinlari va do'stlik lahzalarini eslatadi. "Ko'cha to'la og'aynilardi" misrasi esa jamoaviylik, samimiylik va soddalik muhitini tasvirlaydi. Shoir bu orqali zamonaviy hayotda yo'qolib borayotgan qadriyatlarni eslatadi.

SHE'RDA QO'LLANILGAN POETIK OBRAZLAR.

She'ning eng kuchli poetik obrazlaridan biri — "Yulduzlar. Oy, yulduzlar turg'un." Osmon jismlari bu yerda abadiylik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Uy buzilishi mumkin, vaqt o'tadi, ammo osmon o'sha-o'sha.

Yana nima betakror mutloq?
Yulduzlar. Oy, yulduzlar turg'un.
Uy buzilib ketdi-yu, biroq
Yonar bir juft derazam har tun.
Bu misralarda o'tkinchilik va abadiylik qarama-qarshiligi mujassam.

"So'nggi banddagi "Yonar bir juft derazam har tun" misrasi juda ramziy. Deraza – uy, oila va kutish timsoli. U yonib turadi, go'yo egasini kutadi. "Meni kutar ko'zi to'rt bo'lib" iborasi esa sog'inchning eng yuqori nuqtasini ifodalaydi. Bu yerda uy jonlantiriladi, unga insoniy xususiyat beriladi (personifikatsiya).

Umuman olganda, she'rda quyidagi badiiy vositalar faol qo'llangan:
Epitet (yam-yashil makon)
Metafora (yashil novda – umid timsoli)
Personifikatsiya (deraza kutadi)
Kontrast (xaroba ayvon – yashnar novda)
Takror (yulduzlar obrazi)

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mazkur she'r insonning o'z ildizlariga, bolaligiga va ma'naviy manbalariga sadoqatini kuylaydi. Moddiy olam o'zgaradi, uylar buziladi, ko'chalar o'zgaradi, biroq qalbdagi xotiralar va sog'inch abadiy yashaydi. Shoir oddiy maishiy detallar

orqali yuksak ruhiy-falsafiy mazmun yaratgan. Asar o'quvchini o'z bolaligini, o'z "yonib turgan derazasi"ni eslashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov Sh. She'riyat tahlili va uslublari, Toshkent 2019
2. Rustam Musurmon. Rus tilidan tarjimalar. Toshkent 2021
3. Tursunov D. O'zbek she'riyatida metafora va ramzlar . - Toshkent 2018
4. Aleksandr Faynberg . Qoralamaga qasida
5. Xudoyberdiyev A. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tabiat motivlari